



**YOSHLAR MUHITIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUV
XUSUSIYATIGA EGA GURUHIY JINOYATLARGA QARSHI
KURASHISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARINI
MUSTAHKAMLASH MASALALARI**

*O'zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
Turaev Eshon Amidjonovich*

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan sharoitda yoshlar muhitida sodir etilayotgan transformatsiyalashuv xususiyatiga ega guruhli jinoyatlar, ularning yangi shakllari (kiberfiribgarlik, giyohvand moddalarning onlayn savdosi va virtual jinoiy uyushmalar) tahlil qilingan. Uyushgan jinoyatchilikni fosh etish va unga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv faoliyati sub'ektlari, ichki ishlar organlari va jazoni ijro etish muassasalari o'rtasidagi xizmatlararo hamkorlikni raqamli platformalar asosida integratsiya qilish hamda uning institutsional asoslarini mustahkamlash masalalari asoslab berilgan. Shuningdek, yoshlar o'rtasida kriminal submadaniyat tarqalishining oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga jinoiy submadaniyatni targ'ib qilganlik uchun javobgarlikni belgilovchi yangi normani kiritish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar muhiti, transformatsiyalashuv, guruhli jinoyatlar, uyushgan jinoyatchilik, institutsional asoslar, raqamli hamkorlik, virtual makon, kiberfiribgarlik, jinoiy submadaniyat, xizmatlararo hamkorlik, profilaktika, tezkor-qidiruv faoliyati, jazoni ijro etish muassasalari, jinoiy javobgarlik, kriminogen vaziyat.



соискатель Академии МВД Республики Узбекистан,

Тураев Эшон Амиджонович

ВОПРОСЫ УКРЕПЛЕНИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ОСНОВ БОРЬБЫ С ГРУППОВЫМИ ПРЕСТУПЛЕНИЯМИ ТРАНСФОРМАЦИОННОГО ХАРАКТЕРА В МОЛОДЕЖНОЙ СРЕДЕ

Аннотация: В данной статье в условиях глобализации и развития информационных технологий анализируются совершаемые в молодежной среде групповые преступления, имеющие трансформационный характер, и их новые формы (кибермошенничество, онлайн-торговля наркотическими веществами и виртуальные преступные сообщества). Обоснованы вопросы интеграции межведомственного взаимодействия между субъектами оперативно-розыскной деятельности, органами внутренних дел и учреждениями исполнения наказаний на основе цифровых платформ в выявлении организованной преступности и борьбе с ней, а также укрепления ее институциональных основ. Кроме того, в целях предотвращения распространения криминальной субкультуры среди молодежи разработаны научно-практические предложения и рекомендации по внесению в Уголовный кодекс Республики Узбекистан новой нормы, устанавливающей ответственность за пропаганду криминальной субкультуры. **Ключевые слова:** молодежная среда, трансформация, групповые преступления, организованная преступность, институциональные основы, цифровое сотрудничество, виртуальное пространство, кибермошенничество, криминальная субкультура, межведомственное взаимодействие, профилактика, оперативно-розыскная деятельность, учреждения исполнения наказаний, уголовная ответственность, криминогенная обстановка.



Independent researcher of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan Turaev Eshon Amidjonovich

ISSUES OF STRENGTHENING THE INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF COMBATING GROUP CRIMES OF A TRANSFORMATIONAL NATURE IN THE YOUTH ENVIRONMENT

Abstract: This article analyzes group crimes of a transformational nature committed in the youth environment under the conditions of globalization and the development of information technologies, as well as their new forms (cyber fraud, online drug trafficking, and virtual criminal associations). The issues of integrating interdepartmental cooperation between the subjects of operational-search activities, internal affairs bodies, and penal institutions on the basis of digital platforms in exposing and combating organized crime, as well as strengthening its institutional foundations, are substantiated. Furthermore, in order to prevent the spread of criminal subculture among the youth, scientific and practical proposals and recommendations have been developed on introducing a new norm into the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan establishing liability for the propaganda of criminal subculture.

Keywords: youth environment, transformation, group crimes, organized crime, institutional foundations, digital cooperation, virtual space, cyber fraud, criminal subculture, interdepartmental cooperation, prevention, operational-search activity, penal institutions, criminal liability, criminogenic situation.



Bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalar va axborot almashinuvi shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda jinoyatchilik, xususan, guruhii jinoyatlar ham o'zining an'anaviy shakl va usullarini o'zgartirib, yangicha xususiyatlariga ega bo'lib bormoqda. Bu jarayonda jamiyatning eng faol, izlanuvchan, ammo ayni paytda turli ta'sirlarga tez beriluvchan qatlami bo'lgan yoshlar muhitidagi jinoyatchilik alohida xavotir uyg'otadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashuvi, virtual makondagi uyushgan guruhlarining paydo bo'lishi yoshlarni transformatsiyalashgan guruhii jinoyatlar ya'ni kiberfiribgarlik, sintetik giyohvand moddalarning noqonuniy onlayn savdosi hamda turli radikal va buzg'unchi g'oyalarga asoslangan uyushmalar girdobiga tortish xavfini keskin oshirmoqda.

Mazkur muammoning yechimi qisqa muddatli chora-tadbirlar bilan emas, balki davlat miqyosidagi tizimli va institutsional yondashuvni talab etadi. Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosati davlatning bosh ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev bu boradagi dolzarb vazifalarga to'xtalib, shunday ta'kidlagan edi: "...Biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg'unchi va zararli g'oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma'naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo'lishingiz kerak. Xalqimizning ma'naviy qudrati va boqiy an'analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz" [1].

Davlatimiz rahbarining ushbu konseptual fikrlari yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilikka, ayniqsa uning uyushgan va yangi shakllariga qarshi kurashishda faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning sa'y-harakatlari yetarli emasligini, bu borada bugungi zamonga hamohang, yangicha va ta'sirchan profilaktika mexanizmlarini yaratish zarurligini ko'rsatadi.



Jinoyatlarning transformatsiyalashuvi sharoitida biz ham ularga qarshi kurashishning tezkor-qidiruv va profilaktik usullarini doimiy ravishda yangilab, mahalla, ta'lim muassasalari va ichki ishlar organlari o'rtasidagi integratsiyani ta'minlashimiz shart.

Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda yoshlar muhitida kuzatilayotgan, zamonaviy tus olgan guruhii jinoyatlarning oldini olish, ularga qarshi kurashuvchi davlat va nodavlat tuzilmalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yuqori bosqichga olib chiqish hamda qonunchilik bazasini davr talablariga moslashtirish orqali institutsional asoslarni mustahkamlash ilmiy-amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda milliy qadriyatlar, mafkuraviy immunitetni shakllantirish, tarbiyalanganlik darajasini baholash va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash, huquqiy ta'lim berish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, huquq ustuvorligini anglash ko'nikmalarini shakllantirish kabi masalalar respublikamizning pedagog, psixolog va huquqshunos olimlari: E.Abzalov, M.Quronov, O.Musurmonova, Sh.Abdullaeva, E.G'oziev, V.Karimova, H.Boboev, H.Yo'ldoshev, Z.Islomov, U.Tojixonov, H.Odilqorievlar tomonidan tadqiq qilingan. Huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyatini yuzaga keltirishda fuqarolarning mas'uliyatini oshirishga bag'ishlangan ilmiy izlanish ishlari A.Saidov, A.Agzamho'jaev, A.Azizho'jaev, M.Rustambaev, Sh.Asadov, N.Saburov, H.Mamatov, M.Quronov, I.Zokirov, S.Usmonov, H.Omonov, Sh.Mardonov, A.Pardaev, S.Abduholiqov, A.Irisaliev, T.Hudayberganova, N.Ismoilovlar tomonidan olib borilgan [2].

Biroq, yuqorida qayd etilgan fundamental va amaliy tadqiqotlarda masalaning asosan umumiy nazariy, pedagogik-psixologik hamda keng qamrovli huquqiy jihatlari yoritilgan bo'lsa-da, bugungi globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan sharoitda yoshlar muhitidagi transformatsiyalashuv xususiyatiga ega guruhii



jinoyatlarga qarshi kurashishning o'ziga xos xususiyatlari maxsus ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida yaxlit o'rganilmagan.

Xususan, yoshlar o'rtasidagi uyushgan va yopiq jinoiy tuzilmalarni fosh etishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan, ichki ishlar organlarining tezkor-qidiruv va profilaktika faoliyati samaradorligini oshirish, mahalla, ta'lim muassasalari va oila instituti bilan o'zaro uyg'unlashgan hamkorlik mexanizmlarini yaratish hamda ushbu jarayonning institutsional-huquqiy asoslarini mustahkamlash masalalari bugungi kun talablari nuqtai nazaridan chuqur kompleks tahlilni talab etadi.

Shu bois, zamonaviy tahdidlar va jinoyatchilikning yangi shakllari avj olayotgan murakkab kriminogen vaziyatda ushbu illatlarga qarshi kurashuvchi sub'ektlarning vakolatlarini qonunchilik darajasida takomillashtirish va sohadagi tashkiliy-huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish mazkur yo'nalishda yangicha yondashuvlarga asoslangan ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi

Yoshlar muhitidagi transformatsiyalashuv xususiyatiga ega guruhiiy qonunbuzarliklar va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishning institutsional asoslarini mustahkamlash maqsadida, sohaviy xizmatlar hamkorligini tartibga soluvchi xalqaro va milliy normativ-huquqiy hujjatlar bazasini tizimli ravishda yagona tizimga keltirish taklif etiladi. Mazkur yo'nalishda tadqiqotchi A.N. Pozdnyakovning [3] tasniflovchi yondashuviga tayangan holda, hamkorlikning huquqiy kafolatlarini ikkita yirik funksional blokka ajratgan holda takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- *Milliy qonunchilik va idoraviy normativ bazani modernizatsiya qilish lozim.* Bunda yoshlar muhitidagi guruhiiy jinoyatlarni fosh etish va neytrallashtirish bilan shug'ullanuvchi tezkor-qidiruv faoliyati sub'ektlarining aniq doirasini, ularning o'zaro sohaviy vakolatlarini hamda funksional vazifalarini takrorlanishga yo'l qo'ymaydigan darajada qat'iy reglamentatsiya qilish kerak.



- *Xalqaro va transchegaraviy hamkorlik hujjatlarini konkretizatsiya qilish zarur.* Ikki va ko'p tomonlama xalqaro shartnoma hamda bitimlarning umumiy deklarativ xarakteridan voz kechib, ularni virtual makonda harakat qiluvchi yoshlarning transmilliy uyushgan jinoiy guruhlarini (keyingi o'rinlarda-UJG) barvaqt aniqlash, raqamli dalillarni tezkor uzatish va guruh a'zolarini ekstraditsiya qilish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan amaliy mexanizmlar bilan to'ldirish taqozo etiladi.

JIEM va tergov hibsonalarida saqlanayotgan UJG liderlari hamda faol a'zolarining virtual muhitdagi destruktiv boshqaruv faoliyatini fosh etish tizimini takomillashtirish zarur. Tadqiqotchi A.V. Kaunovning ilmiy xulosalariga ko'ra, UJG yetakchilari hatto izolyatsiya sharoitida ham erkinlikdagi sheriklari orqali jabrlanuvchi va guvohlarga tazyiq o'tkazishga, qamoqxonalar ichida "o'g'rilar g'oyalari" ya'ni jinoiy submadaniyatni targ'ib qilishga va yangi a'zolari yollashga intiladilar [4]. Mazkur xavflarni bartaraf etish va UJGlarning jinoiy zanjirlarini ichidan destruksiya qilish maqsadida quyidagi choralarni amalga oshirish taklif etiladi:

- Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalari va Jazoni ijro etish departamenti tezkor bo'linmalari o'rtasida uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash yo'nalishida idoralararo hamkorlikni kuchaytirish lozim.

- A.V. Kaunov tomonidan asoslab berilganidek, tezkor bo'linmalar o'rtasidagi rasmiyatchilik va qog'ozbozlikni cheklash, TH va JIEM hududida UJG a'zolari o'rtasida o'zaro yashirincha ma'lumot almashinuviga ("malyava"-ya'ni jinoiy kriminogen shaxlar o'rtasida yashirin, noqonuniy xat yoki yozishmalar hamda noqonuniy aloqa vositalari) chek qo'yish maqsadida hududiy tezkor bo'linmalar va JIEM tezkor xodimlari hamkorligini amalga oshirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish zarur.

Shuningdek, yoshlar orasidan chiqqan va og'ir turdagi uyushgan jinoyatlarni sodir etib, jazo muddatini o'tab bo'lgan shaxslarni qayta jinoyat yo'liga kirishining barvaqt oldini olish hamda ular ustidan samarali profilaktik



nazoratni o'rnatish maqsadga muvofiqdir. Olimlar N.S.Artemev va A.M. Rozuvalarning ta'kidlashicha, uyushgan va residiv jinoyatchilikka qarshi kurashda ichki ishlar organlari va jazoni ijro etish muassasalari hamkorligining eng optimal shakli bu, ozodlikdan mahrum qilish joylaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ma'muriy nazorat institutini sifatli tashkil etish hisoblanadi [5].

Yoshlar muhitida jinoiy submadaniyat mafkurasi tarqalishining oldini olish va uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatini qonunchilik darajasida taqiqlash mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqish lozim. Tadqiqotchi G.M. Xudoyanning fikricha, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning kuchi bilan ijobiy natijaga erishib bo'lmaydi [6]. Buning uchun butun davlat apparatining sinxron ishlashi va jinoiy submadaniyatni mazmunan taqiqlovchi qonunchilik bazasini takomillashtirish shart deb hisoblaymiz.

G.M. Xudoyan xalqaro tajribaga (xususan, Armaniston Respublikasi qonunchiligiga) tayangan holda, jinoyat kodekslarida jinoiy ierarxiyada yuqori mavqega ega bo'lganlik ("qonundagi o'g'ri", "jinoiy guruh rahnamolari ya'ni polojenes", jinoiy guruh lideri) hamda "jinoiy submadaniyatni targ'ib qilganlik va unga mansublik" uchun to'g'ridan-to'g'ri jinoiy javobgarlikni belgilash samarali taktik kafolat ekanligini ko'rsatadi. Bunday normalarning milliy qonunchilikka tatbiq etilishi yoshlar o'rtasida jinoiy avtoritetlarning ideallashtirilishiga va ularning virtual olamda mafkuraviy ustunlikka erishishiga qonuniy to'siq bo'ladi.

Yoshlar muhitidagi uyushgan jinoiy guruhlar faoliyati sabablarini barvaqt aniqlash, jinoiy submadaniyat mafkurasi tarqalishining oldini olish va ushbu toifadagi qilmishlarni shakllanish bosqichidayoq zararsizlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga quyidagi qo'shimchalarni kiritish taklif etiladi:



O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga quyidagi mazmundagi 242³-modda kiritilsin:

“242³-modda. Jinoiy submadaniyatni targ'ib qilish

Jinoiy submadaniyat mafkurasini, ya'ni jinoyat olami odatlari, tartiblari va destruktiv g'oyalarini voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida har qanday shaklda targ'ib qilish, ularni ushbu muhitga jalb etish, shuningdek, jinoiy ierarxiyada muayyan mavqega ega bo'lgan shaxslarni ideallashtirishga qaratilgan axborotlarni tarqatish, xuddi shunday ushbu mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida tayyorlash, saqlash yoki namoyish etish, —

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) takroran yoki xavfli residivist tomonidan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

v) ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya tarmoqlari yoki Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda sodir etilgan bo'lsa, — besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga “Jinoiy submadaniyatni targ'ib qilish” nomli 242³-moddani kiritish zarurati, avvalo, amaldagi jinoyat-huquqiy normalarning asosan sodir etilgan jinoyat oqibatlariga munosabat bildirishga yo'naltirilganligi va jinoyatchilikning mafkuraviy poydevorini barvaqt neytrallashtiruvchi proaktiv mexanizmlarning yetishmasligi bilan izohlanadi.

So'nggi yillarda destruktiv g'oyalar hamda kriminal odatlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan, yopiq messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali ommaviy tarqalishi yoshlar muhitida “jazosizlik” illyuziyasini shakllantirib, ularni uyushgan jinoiy tuzilmalar tarkibiga jalb



etishning asosiy determinantiga aylanmoqda. Shu munosabat bilan, mazkur normaning qabul qilinishi jinoiy ierarxiya va avtoritetlarni ideallashtirishga qaratilgan axborot xurujlariga mustaqil jinoyat-huquqiy baho berish hamda uyushgan jinoyatchilikning “kadrlar manbai”ni shakllanish bosqichidayoq uzish imkonini beradi.

Taklif etilayotgan 242³-moddaning differensiatsiyalashgan dispozitsiyasi va sanksiyalar tizimi Jinoyat kodeksining Umumiy bo‘limi tamoyillari hamda qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga to‘liq muvofiqlashtirilgan.

Moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan muqobil jazolar preventiv va tarbiyaviy xususiyatga ega bo‘lsa, ikkinchi qismida AKT imkoniyatlaridan foydalanish, takroran yoki bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilishi kabi kvalifikatsiya belgilari uchun 5 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosining nazarda tutilishi qilmishning ommaviy tahdidini jilovlashga qaratilgan. Mazkur konseptual yondashuv Gruziya, Armaniston va Italiya kabi xorijiy mamlakatlarning uyushgan jinoyatchilikning institutsional va mafkuraviy ildizlariga qarshi kurashish borasidagi ijobiy tajribasiga tayanadi hamda milliy qonunchilik tizimining kriminologik mukammalligini ta’minlaydi.

Mazkur jinoyat tarkibi uyushgan jinoyatchilik va destruktiv guruhlar faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli, ushbu toifadagi ishlar bo‘yicha dastlabki tergov vakolati ichki ishlar organlarining tergov bo‘linmalari zimmasiga yuklanishi lozim.

Shuningdek, fikrimizcha, ushbu moddada nazarda tutilgan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u jinoiy submadaniyatni targ‘ib qiluvchi guruh yoki materiallar haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ixtiyoriy ravishda xabar bergan va jinoyatni fosh etishga faol yordam bergan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilishi kerak.



Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, bugungi kunda yoshlar muhitidagi guruhviy va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda ushbu toifadagi qilmishlarni barvaqt fosh etish amaliyotidagi eng dolzarb tizimli muammo bu, IIO sohaviy xizmatlararo hamkorligining tarqoq xususiyat kasb etayotganligida namoyon bo'lmoqda. Bo'linmalarning yaxlit strategik maqsadlar atrofida jipslashmagani, aksincha, idoraviy izolyatsionizm sharoitida faoliyat yuritayotganligi kuzatilmoqda. Mavjud idoraviy to'siqlar, axborot kommunikatsiyasining inertligi va faqat tor doiradagi xizmat ko'rsatkichlarini yaxshilashga yo'naltirilgan byurokratik yondashuv jinoiy guruhlarining virtuallashuvi va transformatsiyalashuvi sharoitida huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning hujumkorlik taktikasini sezilarli darajada susaytirmoqda.

Mazkur kriminogen vaziyatni tubdan sog'lomlashtirish va xizmatlararo hamkorlikning yaxlit samaradorligini oshirish uchun tizimni kompleks modernizatsiya qilish taqozo etiladi. Xususan, sohaviy xizmatlarni zamonaviy "raqamli hamkorlik" (yagona integratsiyalashgan tahliliy platforma) hamda tashkiliy jihatdan muvofiqlashtirilgan funksional tizim asosida jipslashtirish lozim. Shu bilan birga, yoshlarning yopiq jinoiy tuzilmalarini fosh etishda ekstremal sharoitlarda harakat qiluvchi tezkor xodimlar, tergovchilar va ko'maklashuvchi shaxslarning kasbiy tavakkalchilik chegaralarini qonunchilikda detallashtirilgan holda belgilash hamda ularning institutsional-huquqiy himoyasini kuchaytirish uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishning muhim tashkiliy-huquqiy kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoev: Yoshlar kelajagi bilan bog'liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega. <https://yuz.uz/oz/news/shavkat-mirziyoev-yoshlar-kelajagi-bilan-bogliq-har-qanday-vazifa-birlamchi-ahamiyatga-ega>
2. Zaripov F. M., O'quvchilar huquqbuzarliklari va jinoyatchiligi profilaktikasiga oid modelning amaliyotga tatbiq qilinishi. ZAMONAVIY TA'LIM / SOVREMENNOE OBRAZOVANIE 2020, 2 (87).



<https://cyberleninka.ru/article/n/uvchilar-u-u-buzarliklari-va-zhinoyatchiligi-profilaktikasiga-oid-modelning-amaliyotga-tatbi-ilinishi/viewer>

3. Поздняков А. Н. Международное взаимодействие в борьбе с преступностью в условиях экономических санкций: оперативно-розыскной аспект // Эпомен. – 2020. – № 40. – С. 229–247.
4. Каунов А. В. Проблемные вопросы, связанные с взаимодействием оперативных подразделений органов внутренних дел и уголовно-исполнительной системы при документировании преступлений, совершенных участниками организованных преступных групп // Полицейский вестник ВИПК МВД России. – 2024. – № 1(10). – С. 31–34.
5. Артемьев Н. С., Розуван А. М. Понятие и значение взаимодействия исправительных учреждений с правоохранительными органами в борьбе с организованной и рецидивной преступностью // Человек: преступление и наказание. – 2014. – № 1. – С. 51–53.
6. Худоян Г. М. Актуальные проблемы противодействия терроризму, организованной преступности, незаконной миграции. Вопросы взаимодействия органов государственной власти и управления в борьбе с преступностью // Международный правовой курьер. – 2020. – С. 168–171.